

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOTI BILAN TANISHTIRISH VAZIFA, USUL VOSITALARI

Sevara Maxmudova¹

¹ Qo'qon Universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

dr.sevararana94@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.06.2025

Revised: 29.06.2025

Accepted: 30.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

ilk yosh, adabiyot,
vosita, usul, yonshaduv,
sahlanashtirish, o'yin,
qobiliyat, bosqich.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning dolzarb masalalari, vazifa va usullari aks etgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi davrda badiiy asar bilan tanishtirishda sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish bosqichlari, rivojlantirish vazifalari pedagogik ishlarni shakllari va vositalari o'z aksini topgan.

KIRISH. Ilk va maktabgacha kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko'p qirrali bo'ladi. Bu endi nafaqat tabiatga va atrofni o'rab turgan tabiat muhitiga munosabat, balki insonlar olamiga – o'ziga, yaqinlariga, tengdoshlariga, boshqa kattalarga bo'lgan munosabat hamdir.

Maktabgacha kichik yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emotsional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, bola ertak va badiiy asarlarni tinglar ekan, eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emotsional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni tegishli xayot xodisalari bilan qiyoslaydi va o'zining birinchi umumlashtirmalariga keladi.

To'rt yoshga kelib bolalar badiiy matnni emotsional va yaxlit qabul qilganlari holda uni tushunganliklarini nafaqat nutqda (qayta hikoya qilish, yoddan aytib berish, savollarga javob berish), balki predmetli va o'yinli vaziyatlarda ham ifodalaydilar. Ular ikki-uch personaj yoki xodisani ajratadilar, ular o'rtasida alohida aloqa o'rnatadilar va shu tariqa asar syujetini gavdalantiradilar. Tavsiflashni takrorlash ko'pincha ularda ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Bu yoshda adabiy matnni qabul qilish bolalarning amaliy va o'yin faoliyatiga yaqin bo'lgan «harakat»dan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar bilan to'laonli hamkorlik qilish uchun bola uni tinglashi, suratlarini tomosha qilishi, kitobni qo'llari bilan ushlab ko'rishi, o'yinchoqlar bilan o'ynashi, matnning ayrim qismlarini deklamatsiya qilishi yoki «baqirib aytishi», ularni muayyan xayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini aniqlashi lozim. Ushbu yoshda badiiy asarni qabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chegaralab bo'lmaydi.

Bola hayotining beshinchi yilida badiiy matnni mazmun-mohiyatli yagonalik sifatida qabul qilish mexanizmini shakllantirish boshlanadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog endi bola harakatlari va fikrlarining qabul qilingan badiiy asarga qanchalik mos kelishi haqida bevosita xulosalar chiqarishi mumkin. Ko'pchilik bolalar matn mazmunini yoyiq nutqiy shakllarda bayon qila olmaydilar, ammo uni suratlar, o'yinchoqlar bilan o'yinli vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlari bilan dialoglarda mos ravishda tushunishlarini namoyish qiladilar.

Ushbu yoshda boshqacha vaziyat xam yuzaga kelishi mumkin –bolalar tushinishda qiynalgan ancha murakkab matnni yoki uning ayrim qismlarini so'zlar bilan aytib beradilar.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bolalar syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratganlari holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni -yagona emotsional-mazmun dominanti asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Bolalar adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she'rlarni ayrim ifoda vositalarini ko'rishga qodirdirlar; she'riy asar kayfiyatini yumor, lirika, tantana yordamida ifodalab berishlari mumkin. Bayoniy matnlarning an'anaviy uch qismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an'anaviy kirish formulasi, ertak yakuni, takrorlash va boshq.) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari ham yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- turli janr va mavzulardagi adabiy asarlarni – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;
- tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;
- bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variatsiyalari uchun qulay sharoit yaratish;
- bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;
- kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish, illyustratsiyalarni mustaqil ravishda va takror ko'rib chiqish, aynan shu kitobni takror tinglash istagi.

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga doir ishlarning mazmuni va shart-sharoitlari masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyotning quyidagi: follarning kichik shakllari, prozaik va she'riy ertaklar, hikoyalar, she'rlar janrlari maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emotsional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi.

- badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo'lsa;
- badiiy asar yorqin va ifodali taqdim etilsa;
- bola badiiy matn mazmunini tashqi harakatlarda ifodalasa; badiiy asar asosida o'zi ham improvizatsiya qilsa.

Pedagogik ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib borish lozim.

Birinchi yo‘nalish- badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik obyekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan bog‘liq. Bolalar aynan bir asarga ko‘p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o‘qiydi, mazkur asarni saxnalashtirishni, diafilmlar va videofilmlar namoyishini tashkil etadi. Bolalar she‘rni yoddan o‘qiydilar (yaxlit yoki qisman), bunda ular o‘qishning ifodaliligini saxnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruxda bolalarga yoqib qolgan kitobdan bimalol foydalanish mumkin bo‘lgan sharoitni yaratish zarur. Bunda tarbiyachining o‘ziga qanday kitoblar yoqishini bolalarga haqqoniy bildirishi juda muhimdir.

Ikkinchi yo‘nalish- ayrim badiiy obrazlarni o‘zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Bu asarlarni o‘xshashlik yoki qarama-qarshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko‘rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirilishi mumkin.

Illyustratsiya bolaga harakat rivojini kuzatib borish va matnni tushunish imkonini beruvchi asosiy tayanch vositalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan turli badiiy usullarda va texnikalarda bajarilgan yuqori badiiy ahamiyatli qiziqarli illyustratsiyalardan foydalanish zarur. Biroq, uch-to‘rt yoshli bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli ko‘pincha shunday vaziyat yuzaga keladiki, bunda surat matnni bezamaydi, aksincha matn suratga jon baxsh etadi. Shuning uchun ayrim asarlar bolaning tasavvurini, badiiy nutqni tinglash va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun albatta, ko‘rish tayanchlarisiz taqdim etilishi lozim. Ayniqsa, bu obrazlari yuqori darajada noaniq bo‘lgan va obrazlari yuqori darajada ifodali bo‘lgan (folklor she‘rlarining kichik shakllari) asarlarga taalluqlidir.

Yuqorida sanab o‘tilgan rivojlantirish **vazifalarini** amalga oshirishda bolalarda quyidagi qobiliyatlar shakllantirilishi lozim:

Bilish qobiliyati: kattalarning kitob o‘qishi va hikoya qilishini diqqatni jamlagan holda tinglash, chalg‘itmaslik, asarni oxirigacha eshitish. Kattalar yordamida matn mazmunini tushunish, undagi voqealar tartibini belgilash, qaxramonlarning muallif so‘zi bilan yaratilgan eng yorqin xatti-harakatlarini ko‘rish, ularni illyustratsiyalardan tanib olish.

Nutqiy qobiliyat: o‘qigan asardan olingan taassurotlarini kattalar va tengdoshlari bilan o‘rtoqlashish. Taassurotlar, fikrlar, obrazlarni so‘zlar bilan ifodalash. Tanish ertaklarni aytib berish, she‘rlarni yoddan aytish, adabiy syujetlarni sahnalashtirishda va saxnalashtirilgan o‘yinlarda ishtirok etish.

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qahramonlarga faol ko‘maklashish hamda ular haqida qayg‘urish xosdir. Bolalar kitob, she‘r va xalq qo‘shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, hazil, qofiyadosh

soʻzlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni hamda oʻz nutqida qoʻllashni xoxlaydilar.

Besh yoshga kelib bola:

- Oʻziga yoqqan nechta asarlar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi?
- U nima haqida?
- Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi?
- Bu ertakda yana kimlar bor?
- Ular nima qildilar?
- Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

Suratlarni oʻziga tanish boʻlgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qoʻyadi, biroq pedagog iltimosiga koʻra, agar ushbu qaxramon xam ertakda ishtiroq etsa nima roʻy bergan boʻlishi mumkinligini oʻylab topadi;

Oʻzi xohlagan kichik sheʼr (ovunchoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (boʻgʻirsoq qoʻshigʻi, ertakning ayrim qismlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin. Mustaqil faoliyatda – oʻyinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

4. Badiiy asarni sahnalashtirishning oʻziga xos xususiyatlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning teatr faoliyatining oʻziga xos xususiyati shundaki, u oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Uni amalga oshirishda ushbu jarayonni mohirona boshqaradigan pedagog katta rol oʻynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sahnalashtirish faoliyati bir vaqtning oʻzida kognitiv, tarbiyaviy va rivojlanish funktsiyasini bajaradi. Shuning uchun, bu faqat bolalarning nutqlarini tayyorlash uchun kamaytirilmasligi kerak.

BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISH BOSQICHLARI

1. BADDIY ASAR BILAN TANISHTIRISHGA TAYYORGARLIK ISHLARI	
Pedagog	Bolalar
1. Matn bilan tanishish: — matnni mantiqiy tugallangan qismlarga shartli ravishda ajratish — sarlavhada uning asosiy mazmunini shakllantirish; — asarni toʻliq idrok etish uchun	1. Asarni toʻliq idrok etish uchun zarur boʻlgan bolalar gʻoyalarini kengaytirish va aniqlashtirish. 2. Lugʻatni boyitish, notanish soʻzlar va iboralarning maʼnosini tushuntirishga qaratilgan dastlabki lugʻat ishi

bolalar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan so'zlar va iboralarni ajratib ko'rsatish	
2.Tanishuv vazifalarini shakllantirish: kognitiv, axloqiy, estetik, nutq	
3. Badiiy asar bilan tanishtirish ishlarini olib borish metodikasini rejalashtirish: - ish bilan tanishish uchun uslub va metodik usullarni tanlash - bolalarni badiiy so'z bilan tanishtirish shaklini tanlash.	
2. BOLALARNI ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH ISHI (badiiy matnni idrok qilishni tashkil etish)	
3. ASAR USTIDA KEYINGI ISH - Asarlarni qayta o'qish va muhokama qilishni tashkil etish; - Yodlangan she'rlarni takrorlash, tanish asarlarni qayta hikoya qilish; - Audio yozuvlarni tinglash; - Asarlarga asoslangan bolalarning vizual faoliyati - Asar syujetlari bo'yicha rejissyorlik o'yinlari va sahnalashtirish; - Teatr tomoshalari; - Adabiy konsertlar; - Adabiy viktorinalar; - Guruh kutubxonasidagi faoliyat.	

Badiiy asarni tanishtirish shakli sifatida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish rivojlanish va tarbiyaviy maqsadlarga muvofiq amalga oshiriladi. Teatr faoliyatini amalga oshirishning mazmuni, shakllari va tamoyillari quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

- teatr faoliyatiga qiziqishni rivojlantirish;
- ijodkorlik muhitini yaratish;
- bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi.

O.V.Akulovning ta'kidlashicha, ushbu maqsadlarni amalga oshirish sahnalashtirish faoliyatining asosiy tamoyillarini hisobga olishni talab qiladi:

1. Eng muhim tamoili-bu o'yin (erkin, beixtiyor) va badiiy (tayyorlangan, mazmunli tajribali) tarkibiy qismlarni birlashtirgan ushbu faoliyatning o'ziga xosligi tamoyili.

2. Improvizatsiya tamoyiliga ko'ra, sahnalashtirish faoliyati kattalar va bolaning, bolalarning bir-biri bilan alohida o'zaro ta'sirini belgilaydigan ijodiy faoliyat sifatida qaraladi, uning asosi erkin muhit, bolalar tashabbusini rag'batlantirish, namuna etishmasligi, bolada o'z nuqtai nazarining mavjudligi, o'ziga xoslik va o'zini namoyon qilish istagi.

3. Ushbu ikki tamoyil integrativlik tamoyilida o'z ifodasini topadi, unga ko'ra sahnalashtirish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlar yaxlit pedagogik jarayonga kiritilgan.

Sahnalashtirish faoliyatining paydo bo'lishi shartlari:

- Qiziqish, o'yin qobiliyatlari;
- Badiiy asarni bilish;
- Atributlar.

Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishning **bilvosita usullari**:

- Mashg'ulotda badiiy asarni o'qish, uning mazmuni bo'yicha suhbat.
- Rasmlarni ko'rib chiqish (bolalarning taassurotlarini ko'rgazmali tasvirlar bilan to'ldirish, kostyumlar, bezaklar elementlarini taklif qilish).
- Filmni, videofilmlarni ko'rish (yashash joyi).
- Badiiy asarni qayta o'qish, rollarni taqsimlash, o'z so'zlarini bilan takrorlash, intonatsiyalar, imo-ishoralar, yuz ifodalarini tahlil qilish.
- Tabiiy sharoitda hayvonlarning odatlarini kuzatish, ularning harakatlarini taqlid qilish, hissiy holatni yetkazish – qo'rquv, hayrat, quvonch va boshqalar.
- Asarni audio yozuvlarda tinglash, teatrning har xil turlarini (ayniqsa qo'g'irchoq teatrini) tomosha qilish.
- O'yin uchun atributlarni ishlab chiqarish (ota-onalarni jalb qilish).
- Rasm chizish, modellashtirish, badiiy asar mavzusidagi dasturlar (yaxshisi jamoaviy).

Badiiy asarlarlarni tanishtirishda teatr faoliyatining shakllaridan ajratib ko'rsatadi: rejissyorlik o'yinlariga quyidagilar kiradi::

I. stol teatr o'yinlari:

– stol o'yinchoqlari teatri. Ushbu teatrda turli xil o'yinchoqlar – ishlab chiqarish qo'g'irchoqlari va qo'l mehnati qo'g'irchoqlari, tabiiy va boshqa materiallardan foydalaniladi. Bolalar tasavvur cheklanmaydi, asosiysi o'yinchoqlar va qo'l san'atlari stolda barqaror turishi va harakatga xalaqit bermasligi kerak;

– stol rasmlari teatri. Chizilgan qahramonlar va dekorasiyalar ikki tomonlama bo'lishi sharti.

II. Stend teatr o'yinlari:

– stend kitobi. Kitob shaklidagi sahnalashtirish voqealari bir-birini almashtiradigan rasmlar yordamida tasvirlangan. Ushbu turdagi o'yinlardan sayohat kabi o'yinlar uchun foydalanish qulay.

– flanelgraf. Rasmlar ekranda ko'rsatiladi. Ekran va rasmning orqa tomonini mahkamlaydigan flanel ularni ushlab turadi. Rasmlar eski jurnallardan, kitoblardan tanlangan, yetmagani chiziladi;

– soya teatri. Shaffof qog'oz ekrani, ifodali kesilgan qora rangdagi ertak qahramonlar va ularning orqasida yorqin yorug'lik manbai ishlatiladi, bu esa belgilarni ekranga soya beradi.

Ushbu o'yin uchun bolalar oldingi barcha turdagi o'yinlarga tayyorgarlikni talab qiladi.

Hulosa qilib, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda sahnalashtirish usulining ahamiyati juda katta. Bu metod bolalarning estetik didini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, tafakkurini boyitish hamda ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda samarali vosita hisoblanadi.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda sahnalashtirishning asosiy afzalliklari keltirilgan:

1. *Badiiy asarni chuqurroq anglash.* Sahnalashtirish orqali bolalar asarning mazmunini nafaqat o'qish yoki eshitish orqali, balki amaliy faoliyat orqali ham his qilishadi. Bu esa ularning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

2. *Nutq va til rivoji.* Rolli o'yinlar davomida bolalar yangi so'zlar, iboralar va gap tuzish shakllarini o'zlashtirishadi. Ular asar qahramonlari kabi gapirishga urinib, nutq boyligiga ega bo'lishadi.

3. *Ijodiy va ijtimoiy rivojlanish.* Sahnalashtirish bolalarda tasavvur, fantaziya, o'ziga ishonch va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, guruh bo'lib ishlash, boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

4. *Emotsional tarbiya.* Sahna orqali bolalar qahramonlarning hissiyotlarini boshdan kechirishadi. Bu ular uchun axloqiy qadriyatlarni tushunish va o'z xatti-harakatlariga tanqidiy qarash imkonini beradi.

5. *Faol ishtirok.* Oddiy o'qish yoki tinglashga nisbatan, sahnalashtirish jarayonida bola faol ishtirok etadi.

Sahnalashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy tarbiyani amalga oshirishning eng samarali usullaridan biridir. Bu metod orqali bola nafaqat asarni tushunadi,

balki o‘zini namoyon qilish, boshqalarni tushunish va jamoada ishlash kabi hayotiy muhim ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova, R.M.Qodirova. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. darslik. MTMRXQTMOBRO‘MM.
2. Babayeva D. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi (2018). T.: Barkamol fayz media.
3. Makhmudova Oybachin. (2023). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF VISUAL ACTIVITIES OF PRESCHOOL CHILDREN. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8(8), 101–105. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.815>
4. S.A.Maxmudova, & Qambarova, Y. (2024). NEYROGIMNASTIKANING MAKTABGACHA YOHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI, O‘RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 112–115. Retrieved from
5. Maxmudova, S. (2024). MAKATABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG‘AT ISHINI OLIB BORISHNING METODIK TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 205–210. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1057>
6. Oybachin Makhmudova, . (2022). PROBLEMS OF TEACHING PRESCHOOL CHILDREN IN FINE ACTIVITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 17–21. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-01-03>
7. Makhmudova, O. (2024). THEORETICAL VIEWS OF FINE ARTS AS A FACTOR OF INFLUENCE ON THE DEVELOPMENT OF A PRESCHOOL CHILD. *University Research Base*, 515–518. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/562>
8. Qodirov, V. (2024). ILK YOSH (3 YOSHGACHA BO‘LGAN) DAVRDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 130–133. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.929>
9. Ушакова О.С., Струнина Е.М. (2004). Методика развития речи детей дошкольного возраста: Учеб.-метод. пособие для воспитателей дошкол. образоват. учреждений. –Москва: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС.
10. Яшина В. И., Алексеева М. М. (2013) Теория и методика развития речи детей. Москва: Издательский центр «Академия».